

**KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT TUSHUNCHASI VA
UNING INVESTITSIYA LOYIHALARIDAGI AHAMIYATI**

Joldasbayeva Gulimxan Xamit qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi yo'nalishi magistranti

E-mail: gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tadqiqotda korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi, uning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning investitsiya loyihalaridagi ahamiyati, bu yo'nlashda olimlar, tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: korporativ ijtimoiy mas'uliyat, investitsiya, mahalliy aholi huquqlari, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, investitsiya loyihalari.

**ПОНЯТИЕ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ
ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ
ПРОЕКТАХ**

Жолдасбаева Гулимхан Хамит кизи

Ташкентский государственный юридический

университет магистра в Бизнесправа.

E-mail: gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com

Аннотация: в данном исследовании рассматриваются понятие корпоративной социальной ответственности, её возникновение, этапы формирования и развития, значение корпоративной социальной ответственности в инвестиционных проектах, а также мнения учёных и исследователей по данному направлению.

Ключевые слова: корпоративная социальная ответственность, инвестиции, права местного населения, экология, охрана окружающей среды, инвестиционные проекты.

**THE CONCEPT OF CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY
AND
ITS IMPORTANCE IN INVESTMENT PROJECTS**

Joldasbayeva Gulimxan Xamit qizi

Tashkent State University of Law

Master's degree in Business Law

E-mail: gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com

Abstract: this study discusses the concept of corporate social responsibility, its emergence, stages of formation and development, the significance of corporate social responsibility in investment projects, and the views expressed by scholars and researchers in this field.

Keywords: corporate social responsibility, investment, local population rights, ecology, environmental protection, investment projects.

2025-yilga kelib korporativ ijtimoiy mas'uliyat kompaniyalar strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Bu yo'nalishda kompaniyalardan mahalliy aholi huquqlarini taminlash va majburiy mehnat, kamsitish va xavfli mehnat sharoitlari kabi huquqbuzarliklarga olib kelmaslikni taminlash talab qilinadi.¹ Ushbu jarayonda korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha dastlab inson huquqlari, xodimlar manfaatini taminlash maqsadida takliflar berilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib esa u biznes kompaniyalarining tadbirkorlik faoliyatidagi biznes strategiyasining asosiy qismiga aylangan. Bu orqali kompaniyalar iqtisodiy foyda olishda brend obrosini oshirish, raqobatdosh boshqa korxonalarga nisbatan ustunlikka erishish, biznes imtiyozlarga ega bo'lishga harakat qilishadi. Yuqoridagi malumotlardan ko'rinib turibdiki korporativ ijtimoiy mas'uliyatning investitsiya loyihalaridagi, tadbirkorlik faoliyatidagi ahamiyati ortib bormoqda.

¹ ESG Trends 2025. <https://esgpro.co.uk/esg-trends-2025/>.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat atamasi 1950-yillarda vujudga kelgan. 1953-yilda Hovard R. Bowenning "Tadbirkorning ijtimoiy mas'uliyati" asarida mazkur tushuncha keltirilgan.² Bu tushunchani keng ma'noda ta'riflab, shuni aytish mumkinki u ishchilar, korxonalar, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimi hisoblanadi. Olimlarning fikricha korporativ ijtimoiy mas'uliyatning paydo bo'lishiga bir qator omillar sabab bo'lgan.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning uchta modeli shakllangan. Ular quyidagicha:

1. Bu yo'nalishda davlatning faol ishtirok etishi. Yani yangi ish o'rinlarini, xodimlar uchun adolatli mehnat sharoitlarini yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilishda huquqiy tomondan davlatning faol ishtirok etishi. Davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu yo'nalishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu modeldagi davlatlarga Belgiya, Niderlandiya, Finlyandiya va Shvetsiya davlatlari kiradi.

2. Asosan korxona doirasida tartibga solinadi, bunda korxonaning o'z obro'si, iqtisodiy foyda olish uchun maxsus qoidalar ishlab chiqishi mumkin. Bu jarayonda davlat ishtiroki faqat qonunlar, ko'rsatmalar, me'yoriy qoidalar ishlab chiqishidan iborat bo'ladi. Ikkinchi modelga AQSh, Kanada, Yaponiya, Lotin Amerikasi davlatlari kiradi.

3. Uchinchi model avvalgi ikki modelning xususiyatlarini birlashgan shakl hisoblanadi. Unda davlat ham, korxona ham ijtimoiy mas'uliyatga e'tibor beradi.

² Heddrich Katharina. CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY IN GERMANY AND OTHER COUNTRIES. January 2014. ResearchGate.
https://www.researchgate.net/publication/275994293_Corporate_Social_Responsibility_In_Germany_And_Other_Countries.

Bu model qo'llanuvchi davlatlar Avstriya, Germaniya, Fransiya.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat bilan birga stakeholder, biznes etikasi nazariyasi va korporativ fuqarolik tushunchalari ham muhim ahamiyatga ega.³

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning vujudga kelishi va rivojlanish tarixini bilish, ularning mohiyatini anglashga va tushunishga yordam beradi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat korxonalarning ekologik, axloqiy, ijtimoiy majburiyatlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida XX asr o'rtalarida Evropa iqtisodiyotida shakllana boshladi. 1960-yillarda esa Amerika va Evropa korxonalari tomonidan ilg'or g'oya sifatida ommalasha boshladi. Mazkur yo'nalishda H.Bowen o'zining "Social responsibilities of the Businessman" asarida korxonalarning iqtisodiy faoliyatida jamiyat manfaatlarini hisobga olishi kerakligini takidlagan. Keyinchalik bu yondashuvda A.Caroll, K.Davis, R.Freeman munozaralar olib brogan. Ular bolalar mehnati, noqulay mehnat sharoitlari, korxonalar iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri va oqibatlari haqida fikr bildirishgan.

Amerika va Evropada kapitalistik tizimning rivojlanishi, yangi sanoat uskunalarning paydo bo'lishi, biznesning rivojlanishida dastlab korxonalar faqat ishlab chiqarishga alohida urg'u bergan bo'lsa, keyingi davrlarda esa jamiyatda ishchilar huquqlarini himoya qilish, qulay mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlarning mehnat birlashmalari, kasaba uyushmalarining faoliyat ko'rsatishi, atrof-muhitni himoya qilish, investitsiya loyihalari amalga oshirilishi belgilangan hudud, mahalliy aholi huquqlarini taminlash lozimligi kabi tushunchalar vujudga

³ Corporate social responsibility: Evolution of a definitional construct. September 1999. Business & Society. https://www.researchgate.net/publication/282441223_Corporate_social_responsibility_Evolution_of_a_definitional_construct.

keldi, va hozirgi kunga kelib bu tadbirkorlik faoliyatida biznes strategiyasining ajralmas qismiga aylandi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning brend imidjga tasir ko'rsatishi va tadbirkorlar o'rtasidagi raqobat rivojlanishi sababli bu tushuncha dolzard ahamiyatga ega bo'ldi.

90-yillarda “steakeholder” yani manfaatdor tomonlar nazariyasi keng tarqala boshladi. Keyingi bosqich, XXI asrda 2000-yillar boshidagi va 2008-yildagi iqtisodiy inqirozlar korxonalar faoliyatiga jiddiy zarar etkazdi. Malumotlarga ko'ra bunday inqiroz davrida korxonalar faqat o'z imidjni va obro'sini saqlab qolish, raqobatdosh kompaniyalardan ustun bo'lish uchun ijtinoiy mas'uliyat bilan faoliyat yuritgan. Shuningdek bu davrda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha 1992-yili iyun oyida Rio-de-Janeyroda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasi, BMTning 1992-yilgi Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi qabul qilinishi kabi bir nechta muhim voqealar bo'lib o'tdi.⁴

Xulosa qiladigan bo'lsak, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosiy tamoyillari va shakllari kompaniyalarga ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy mas'uliyatlarni to'g'ri amalga oshirishda yordam beradi. Bu o'z navbatida, kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga, obro'-e'tiborining oshishiga, hamda jamiyat va atrof-muhit bilan mustahkam aloqalar o'rnatilishiga olib keladi. Shuningdek, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mahalliy aholi huquqlari o'rtasidagi uyg'unlik — barqaror investitsion rivojlanishning poydevori hisoblanadi. Agar bu ikkisi birgalikda, uyg'unlikda bo'lsa jamiyat ham, kompaniyalar ham ijobiy

⁴ Mauricio Andrés Latapí Agudelo. A literature review of the history and evolution of corporate social responsibility. Journal of Sustainable Business. <https://jcsr.springeropen.com/articles/10.1186/s40991-018-0039-y>.

natiyjaga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.E.Суханов., Сравнительное корпоративное право. 2014.
2. Корпоратив ҳуқуқ. Раҳмонкулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. 2007.
<https://library-tsul.uz/korporativ-u-u-ra-monkulov-r-gulyamov-s-s-2007/>
3. ESG Trends 2025. <https://esgpro.co.uk/esg-trends-2025/>
4. Heddrich Katharina. COPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY IN GERMANY AND OTHER COUNTRIES. January 2014. ResearchGate.
https://www.researchgate.net/publication/275994293_Corporate_Social_Responsibility_In_Germany_And_Other_Countries.
5. Corporate social responsibility: Evolution of a definitional construct. September 1999. Business & Society.
6. Mauricio Andrés Latapí Agudelo. A literature review of the history and evolution of corporate social responsibility. Journal of Sustainable Business.